



# Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

## INDONEZIYA TURIZMINING IQTISODIY AHAMIYATI: XIZMATLAR BOZORI VA O'RGANISH MUMKIN BO'LGAN TAJRIBALAR

Usmonova Sabohat<sup>1</sup>

Tashtayeva Saida<sup>2</sup>

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

### KEYWORDS

turizm sektori, xizmatlar bozori, transport va mehmonxona xizmatlari, milliy iqtisodiyot

### ABSTRACT

Ushbu maqolada Indoneziyaning jahon turizm bozoridagi o'rni, turizmnning milliy iqtisodga ta'siri, mehmonxona, transport va xizmat ko'rsatish sohalaridagi rivojlanishlar, shuningdek, boshqa davlatlar o'z turizm sektorini rivojlantirishda foydalanishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatli tajribalar tahlil qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.14888521**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

### **KIRISH**

Turizm davlatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va ularning xalqaro miqyosda tanilishining muhim mexanizmlaridan biridir.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan integratsiya jarayonlari shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy birlashmalar va ayrim mamlakatlarning rivojlanishi bu xalqaro iqtisodiy aloqalarning zichligi, xususan, turizm tarmog'ining rivojlanishi bilan belgilanadi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Turizmning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda kattadir. Tadqiqod mavzusi sifatida olingan Indoneziyada turizm dunyo bo'ylab sayyohlarni o'ziga jalb etuvchi eng jozibador sohalardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatning boy madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari va o'ziga xos an'analari global xizmatlar bozorida raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lishiga yordam bermoqda. Turizm sohasining iqtisodiy ahamiyati mamlakatning yalpi ichki mahsuloti, bandlik darajasi va xalqaro savdo

<sup>1</sup> Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

<sup>2</sup> Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti g.f.n., dotsentti

salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi.

Ushbu maqolada Indoneziya turizm xizmatlari bozorining rivojlanish xususiyatlari, uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi va bu borada o'rganish mumkin bo'lgan tajribalar ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda, Indoneziyaning xizmatlar sektoridagi innovatsion yondashuvlari va boshqa mamlakatlar uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan strategiyalariga alohida e'tibor qaratiladi.

## USUL

Tadqiqot davomida quyidagi uslublardan foydalanildi:

1. Statistik tahlil: Turizmning mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va bandlik darajasiga qo'shgan hissasini aniqlash uchun iqtisodiy statistikalarni o'rganish. Sayyohlar oqimi, ularning xarajatlari va turizm xizmatlari eksporti ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
2. O'zaro bog'liqlikni tahlil qilish: Turizm sohasining boshqa sektorlar bilan (transport, savdo, qishloq xo'jaligi) iqtisodiy bog'liqligini o'rganish. Turizm rivojlanishi mahalliy jamiyatlar va ekologik barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qilish.
3. Tahliliy usullar: SWOT tahlil yordamida Indoneziya turizm sektorining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, imkoniyatlar va xavflarni baholash.
4. Case study (ish tajribasi tahlili): Bali, Yava yoki Lombok kabi yirik turistik hududlarda amalga oshirilgan strategiyalar va ularning iqtisodiy natijalarini o'rganish. Mahalliy turizmni rivojlantirishda qo'llanilgan maxsus yondashuvlarni tahlil qilish.

## NATIJALAR

Indoneziyaning turizm xizmatlar bozori global va mahalliy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bozor mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ish o'rinalarini yaratish va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Quyida tahlilning asosiy natijalari keltirilgan:


### 1. Xizmatlar bozorining hajmi va dinamikasi

Indoneziya turizm sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 6-7 foizini tashkil etadi. Turizm xizmatlari eksporti boshqa xizmatlar eksporti tarkibida yetakchi o'rinni egallab, davlatga milliardlab dollar daromad keltirmoqda. Mamlakatga kirib keluvchi xorijiy sayyohlar oqimi yildan yilga o'sib bormoqda, bunda Bali, Lombok va Jakarta kabi hududlar asosiy yo'nalishlar bo'lib qolmoqda. 2024-yilda turizm sektori Indoneziya YaIMning qariyb 5.1 foizini tashkil qilishi prognoz qilingan bo'lib, bu qiymat taxminan IDR 1,131 trillionni (Indoneziya rupiyasi) tashkil etadi. Bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 12.3 foizga o'sishni ko'rsatadi.

### 2. Ish o'rinalarini yaratish va bandlikka ta'siri

Turizm xizmatlari sohasida bandlik darajasi yuqori bo'lib, bu sohada millionlab odamlar ish bilan ta'minlangan. Mehmonxonalar, restoranlar, transport va ko'ngilochar

xizmatlar sohasida ko'plab yangi ish o'rnlari yaratilmoqda. Ayniqsa, mahalliy aholi turizm xizmatlaridan bevosita foyda ko'radi. Turizm sektori orqali 12.5 milliondan ortiq ish o'rni yaratilgan, bu pandemiyadan oldingi ko'rsatkichlardan yuqori bo'lib, mahalliy va xalqaro sayyoqlikni rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



### 1-rasm. Indoneziyaga tashrif buyurgan sayyoqlar oqimi va turizmdan olgan daromadi (2019-2023-yillar)

Yuqorida berilgan grafik ma'lumotlarda Indoneziyaga 2019-yilda 16,1 million xalqaro sayyoqlar tashrif buyurgan. Pandemiya sabab 2020 va 2021-yillarda sayyoqlar soni sezilarli darajada kamayib, 2022-yilga kelib 5,47 millionga yetgan. 2023-yilga kelib, xalqaro sayyoqlar oqimi 6,4 millionga yetib, barqaror o'sishni ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 2019-yilda turizm eksport daromadlari \$10,5 milliardni tashkil etgan. 2020 va 2021-yillarda bu daromad pandemiya sabab \$1,2 milliardgacha kamaygan. 2022-yilga kelib \$7,04 milliard, 2023-yilda esa \$8,5 milliard daromad qayd etilgan. Bu esa mamlakat pandemiyadan keyin turizm eksport daromadlarida o'sish kuzatilyotgangini ko'rsatadi.

#### 3. Xizmatlar sifati va raqobatbardoshlik

Indoneziya xizmatlar bozori jahon turizmida muhim o'rin tutuvchi sifatli mehmonxona xizmatlari, sayyoqlik agentliklari va ekologik turizm kabi yo'nalishlar orqali yuqori raqobatbardoshlikka erishgan. Shuningdek, mahalliy va xalqaro miqyosda xizmatlar sifatining oshishi, texnologiyalar joriy etilishi bozorning barqaror o'sishiga ko'maklashmoqda.

#### 5. Infratuzilma va innovatsion yondashuvlar

Indoneziya turizm infratuzilmasi (aviatsiya, yo'l transporti, sayyoqlik obyektlari) so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlangan. Ayniqsa, "Digital Tourism" konsepsiyasining joriy etilishi va onlayn xizmatlar ko'rsatish bozorni diversifikatsiya qilishga va xizmatlarni qulaylashtirishga yordam berdi.

## MUHOKAMA

Indoneziyaning turizm sohasida erishgan yutuqlari uning iqtisodiyotiga qo'shayotgan ulkan hissasi bilan ahamiyatlidir. Turizm mamlakatda ish o'rinlarini yaratish, valyuta tushumlarini oshirish va hududlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. 2019-yilda turizm Indoneziyaning yalpi ichki mahsulotining 5,5 foizini tashkil etgan va xalqaro sayyoohlar oqimini jalb qilishda raqobatbardoshligini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Indoneziyaning xizmatlar bozorida olib borgan islohotlari va xorij tajribalarini joriy qilish muvaffaqiyatning asosiy sabablaridan biridir. Xususan, davlat-xususiy sherikchilik modeli orqali turizm infratuzilmasi rivojlantirilgan. Bu aeroportlar, mehmonxonalar va dengiz portlarini modernizatsiya qilishda muhim rol o'yнaydi. Bundan tashqari, barqaror turizm amaliyotlarini joriy etish, mahalliy madaniyat va tabiatni asrash orqali ekoturizmni rivojlantirish e'tiborga molik tajribalardir.

Quyidagi 1-jadvalda Indoneziya turizmi va turizm xizmatlar bozorining imkoniyatlari hamda kuchli tomonlari bilanbirgalikda uning zaif jihatlari va tahdidlar keltirilgan.

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tabiiy resurslar va xilma-xillik</li> <li>• Narx raqobati</li> <li>• Madaniy va gastronomik turizm</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Infratuzilma kamchiligi</li> <li>• Atrof-muhitga ta'sir</li> <li>• Terrorizm va xavfsizlik muammolari</li> </ul>
Imkoniyatlari	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ekoturizm va barqaror rivojlanish</li> <li>• Raqamli turizm</li> <li>• Yangi bozorlarni rivojlantirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Atrof-muhit muammolari</li> <li>• Raqobat</li> <li>• Iqtisodiy tebranishlar</li> </ul>

### 1-jadval. Indoneziya turizmi SWOT tahlili

Jadvalga ko'ra, Indoneziya turizmi va turizm xizmatlar bozorining kuchli taraflari sifatida - Tabiiy resurslar va xilma-xillik: Indoneziya dunyodagi eng katta arxipelaglardan biri bo'lib, Bali, Borobudur kabi diqqatga sazovor joylari va marjon orollari bilan mashhur. Mamlakatning tabiiy va madaniy merosi yuqori baholanadi; Narx raqobati: Indoneziya turizm narxlari bo'yicha jahonning eng qulay mamlakatlaridan biri hisoblanadi; Madaniy va gastronomik turizm: Mahalliy urf-odatlar va taomlar turistlarni jalb qilishini keltirishimiz mumkin. Infratuzilma kamchiligi, ya'ni transport va turistik xizmatlar infratuzilmasi ba'zi mintaqalarda yaxshi rivojlanmaganligi; atrof-muhitga ta'sir: turizmning tabiiy resurslarga bo'lgan salbiy ta'siri, xususan, Bali kabi hududlarda ekologik yukning oshishi; terrorizm va xavfsizlik muammolari: o'tgan yillardagi xavfsizlik tahlikalari turistlar oqimiga salbiy ta'sir qilganligi zaif taraflar sifatida beriladi. Imkoniyatlari esa tabiiy resurslarni asrash eva ekoturizmni rivojlantirish orqali yangi turistlarni jalb qilish, onlayn bronlash platformalari va raqamli marketing orqali turistlarni jalb qilishda raqamli turizmni rivojlantirish, Hindiston, Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlardan keluvchi turistlar sonini oshirish orqali yangi turist bozorlarini kengaytirish turadi.

Indoneziyada raqamli marketing vositalaridan foydalanish turistlarni jalb qilishda

samaradorligini ko'rsatmoqda. Xitoy, Malayziya va Singapur kabi mamlakatlardan turistlar oqimini oshirish uchun nishonli reklama kampaniyalari amalga oshirilgan. Bu O'zbekistonga xalqaro turizmni rivojlantirishda amaliy o'rnak bo'la oladi.

## XULOSA

Indoneziya turizmi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning xizmatlar bozorida muhim rol o'ynaydi. Turizm sanoati Indoneziya iqtisodiyotining katta qismiga hissa qo'shadi, uning nafaqat ichki bozorni rivojlantirish, balki eksport xizmatlari orqali xalqaro daromadlar olishga imkon beradi. Mamlakatda turizm sektorining o'sishi, xususan Bali va boshqa mashhur hududlarda, mehmonxona xizmatlari, transport, gastronomiya va madaniyatga oid xizmatlar sohalarini rivojlantirishga olib keladi. Bundan tashqari, Indoneziya turizmi raqobatbardosh narxlar, tabiiy va madaniy resurslar va barqaror turizm imkoniyatlarini taqdim etish orqali global miqyosda o'zining o'rnnini mustahkamlamoqda. Yangi bozorlarga kirish va raqamli texnologiyalarni kengaytirish, shuningdek, ekoturizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning yangi yo'llari ochilmoqda

Xulosa qilib aytganda, Indoneziyaning turizm sohasidagi tajribasi O'zbekiston uchun muhim saboqlar beradi. Xususan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli marketing strategiyalari va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan loyihalar O'zbekistonda turizm sektorini rivojlantirish uchun asos bo'lishi mumkin.

## AMALIY TAVSIYALAR

1. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish: Indoneziyada turizmni rivojlantirish uchun infratuzilma juda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham, turizmni rivojlantirish uchun, aeroportlar, yo'llar, mehmonxona xizmatlari, transport tizimini yaxshilash zarur.

2. Mahalliy madaniyat va tabiatni targ'ib qilish: Bali va boshqa Indoneziya hududlarida tabiiy go'zallik va madaniyat birlashtirilgan turizmni rivojlantirish yo'lg'a qo'yilgan. O'zbekistonda ham, tarixiy obidalar, madaniy meros va tabiatni birlashtirib, madaniy turizmni rivojlantirish mumkin.

3. Turizmni ekologik va barqaror qilish: Indoneziya ekologik turizmga katta ahamiyat beradi. O'zbekistonda ham ekologik turizmni rivojlantirish, barqaror turizm amaliyotlarini amalga oshirish, tabiatni asrash va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha yondoshuvlarni joriy etish kerak.

4. Marketing va brend yaratish: Indoneziya turizmi o'z brendini, masalan, Bali orolini dunyo bo'ylab mashhur qildi. O'zbekistonda ham, mamlakatning turistik salohiyatini taqdim etish uchun kuchli brend yaratish, reklama va marketing strategiyalarini rivojlantirish muhim.

5. Mahalliy aholiga turizmni targ'ib qilish: Indoneziyada turizm aholini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham, mahalliy aholiga turizmning foydalari, mehmonlarni qabul qilishda qanday xizmatlarni taqdim etish zarurligini o'rgatish va turizm sohasida ishslashni rag'batlantirish muhimdir.

6. Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Indoneziya turizmi internet va raqamli

541

texnologiyalar yordamida turistlar bilan o'zaro aloqani osonlashtirgan. O'zbekistonda ham, onlayn rezervasyon tizimlari, mobil ilovalar, raqamli marketing orqali turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Michael Parrnwell/Tourism in Southeast Asia: Challenges and New Directions - 2009
2. The Southeast Asia Handbook: Indonesia Tourism
3. Maya S. P. and Tetty S./ Analysis of the Role of Tourism in the Economy in Indonesia – 2019/International Journal of Advances in Social and Economics
4. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot
5. <https://www.worldbank.org>
6. <https://Statista.com>
7. <https://www.unwto.org>
8. <https://www.indonesia.travel>